

Bozor, vokzal, 1-tug'ruqxona, aroq zovod, infektsionniy, med kollej, ped kollej, yangi bozor, eski bozor, avtovakzal Bekatning ola-g'ovur shovqinlariga qo'shilib, avtobusga bir eplab chiqib oldim. Yo'lovchi unchalik ko'p emas edi. Odam siyrak edi. Men ham chekkaroqdagi bo'sh o'rindiqlarga, haydovchiga yaqinroq joyga borib cho'kdum. Kimi ishdan, kimi o'qishdan qaytardi yo'lovchilarning. Men qo'l telefonimning soatiga qarasam naq to'tr bo'libdi. Demak, shoshilish kerak. Aftobus shaharni kezib avtosohbekatga yetgunicha yarim soatlar vaqt o'tadiyov Besh daqiqa turib qolgan avtobusni kimdir xaydashga unnadi: "Bolam kech qolyapmiz, haydigin bosib-bosib tezroq". Haydovchi unga javoban "Xola, bu sizga taksi emas, avtobus, xohlasangiz shu! Bo'lmasa ana, katta yo'l" dedi. Orqaroqdagi onam qatori ayol gapiga javoban u. shu so'zлarni eshitarkanman, bir seskanib ketdim "Tavba", dedim ichimdan, o'zing insofini ber Tangrim Xullasi, bir payt avtobus g'imirlay boshladi. Men qancha shoshsam, avtobus shuncha sekin yurardi Istar-istamay g'imirlayotgan avtobusning oynasidan tashqarini tomoshalab borarkanman, atrof oppoq qorga burkangan, qish qishligini qilib, ajib bir go'zallikni namoyish etib turardi. O'zimni ming chalg'itishga urinmayin, baribir xayolim azim Kentga ketadigan so'nggi reys avtobusiga qarab tortib ketardi Shoshganing bilan bo'lmas ekan. Undan ko'ra taksiga chiqqanimda bunday tipirchilashga ne hojat deng. Bu yog'ini taqdiri azaldan ko'ramiz

Shunday qilib, chamasi yarim soatlar vaqtini orqada qoldirib, yangi bozor biqinidan chiqdik. Aylanma yo'ldan burlib, ko'priordan sal o'tib to'xtadik. Kimdir bozorga shoshardi. Kimdir bozordan qaytardi. Avtobuslar safi tiqilib ketgan. Hammasi bir-bir navbat bilan siljir, yo'lovchilarni tushira-tushira, ketguvchilarni mindira-mindira yana o'z yo'nalihsida davom etardi. Oradan shu payt yana besh daqiqa o'tdi. Har bir avtobusda chiptachi bola bor emasmi, chor tomon o'shalarning ovoziga to'lib ketdi "Qani ketdik, qani keldik", xullasi turli xil shevalar yangrardi. Endgi navbat bizlarga yetdi. Eshigi ochilishi bilanoq avtobusdan haligi bolakay sakrab tushdi. Avval chiqayotganimda aytgan gaplarini plastinka yanglig' qaytala boshladi. Bir payt avtobusimizning oldiga kesarib oq rangli matiz kelib to'xtadi. Shu payt chiptachi bolakay harakatlardan sezishimcha:

Aka, sal chekkaroqqa olib turasizmi, mashinangizni hozir biz chiqib ketishimiz kerak? dedi boshini xiyol egib matiz eshigiga. Matiddagi haydovchi ham bo'yи bir qarich ekanmi, oldingi o'rindiqdan boshi sal-pal ko'rini turardi. U ham qo'lini siltab tashlab, nimalarnidir do'q urdi.

Bor-e ishingga, keng yo'l, o'tavermaysanmi bu tomonimdan, - degan mazmunda chiyillab

Avtobus haydovchisi o'zimiz tengi yigit ekan, rul chamberagini ohista aylantirib, og'ziga mum tishlagandek o'tiraverdi.

Bola chorasiz edi. Hamma o'z ishi bilan ovora. Bozordan chiqardi, bozorga kirardi. Chor atrof turfa xil baqiroq ovozga to'la.

Bolaning sasi chiqmay qolardi ba'zida. Shu damda avtobusdan kimdir so'z qotdi.

Shofyor uka o'zingiz tushib, mashinani olishini tayinlang, axir biz shoyapmiz.

Tushundim xola, tushundim. Nima qilay, eshshak miyalar qaerda to'xtab, qaerdan yurishini bilmasa? Borib peshonasiga musht tushiraymi?

Nima qilsang qil, lekin bizni manzilga elitgin. Axir qosh qoraya boshladi. Nevaram kasal, shifoxonaga boryapman kuyindi boshqa bir opa.

O'sha matiz hali ham avtobusning oldiginasida qaqqayib turganicha, uning haydovchisi telefonda nimalarnidir valdirab gaplashardi

Sabr kosasi to'lgan haydovchi yigit eshagini "sharq" etib ochdi-da, pastga sakrab tushdi. Jahli chiqqan ko'rinati. To'g'ri matizning xaydovchisi oynagini chertdi:

Uka, sal chekkaroqqa olib tur, chiqib ketaylik, xalq kutib qoldi.

Matiddagi tirrancha ham bo'sh kelmadni. Qo'lini avvalgidek silkib tashlab, bu tomondan o'taverin, dunyo tormidi, ishorasini qildi.

Bu tomonda avtobus sig'adigan yo'l bo'lsa mayli edi, arava ham o'tolmasdi

Xullasi, ikkisi ham kelisholmadi. Matizning haydovchisi oxiri chidamadi shekilli, "sharq" etib eshikni ochdi-da, g'oz yurish bilan o'rta qichiqdi. Yon tomonidan bir qora kiyingan barzangi tushdi. Ikkisi xam xuddi kinolardagi telexlarga o'xshab, ko'kragiga qo'lini qo'yib, "Qo'lingdan nima kelardi gapir" degan mazmunda kerryishib turardi.

Chorasiz qolgan avtobus haydovchisi hech nima deyolmadni. Chiptachi bolakayning yoniga o'tdi. Ular ham bir-ikki oldinga qarab bosdi. Bir payt haligi matizni boshqarayotgan tirrancha chiptachi bolaning oldiga keldi. Men ham faqat kuzatib turmayin deb qo'limdag'i sumkani yonimdag'i ayloga berdim-da, pastga endim. To'g'risi, har ikkisiga ham ichim achirdi

Men chiqqan paytimda har ikki juftlikni begonalar xuddi tsirk tomosha qilayotgandek chor tomondan o'rab olishgandi.

Hammasiga tomosha kerak edi u yerdagilarning. Kap-katta soqollari serraygan, boboylardan tortib, dinu dindorlar ham bor edi chamamda. Bozor-da, bozor Sotadigan ham shu yerda, oladigan ham. Men ich etimni yeb-tirnab, tomoshatalab olomonga kelib qo'shildim. Qo'llarim tugildi. Mushtumimni qisirlatib, matiddagi tirranchaning naq peshonasiga tushrmochchi bo'lardimu ammo, lekin, olomondan o'tib bo'lmasdi. Uriilib, surilib, bir to'da odamlarning orasiga kirib oldim. O'zim ham tekin tomoshachilarning atigi bittasiga aylandim qoldim.

Bir payt, haligi matizning egasi bo'yи bir qarich tirrancha chiptachi bolaning e'tiborsiz turganini payqab turibmi, naq peshonasining ustiga tirsagi bilan tushirdi Tomoshatalab olomon esa xuddi ringdagi jangni tomosha qilayotgandek "ur, sur" ovoz bilan ko'kka sapchishardi Qani endi men ularning oldiga chiqib, o'z qahramonligimni ko'rsatib qo'ysam edi Afsus, ming afsus!..

Shu payt avtobus haydovchisi olomondan sitilib chiqdi. Olomon qoq ikkiga bo'linib ketdi. Bu dahshatli manzara bundan besh yil ilgarigi jangu-jadallarni esga solardi haligi chiptachi bolaning og'zi-burni qip-qizil qonga belandi. Qo'lidagi chiptadan yig'ilgan pullar atrofga sochilib ketgan, ba'zi mingtaligu besh yuztaliklarga bolaning og'izdan tomayotgan qon sachrab ketgandi. Haydovchi gung edi. Haydovchi lol edi. Shu tobda ikki safda turgan tekin tomosha olomonga bir pahlavon kelib o'shqirdi: "Sizlarga bu yer tomosha joyimi? Tur, surlarlaring bu yerdan Bo'lmasa" gapi ichida qoldi pahlavonning. Matiz haydovchisi mashinasiga o'tirib, sal chekkaroqqa o'tdi. Yonidagi esa qaergadir g'oyib bo'lgan ko'rinati. U sheringini izlay boshladi. Chiptachi bola ho'ngrab yig'lar, ko'z soqqalaridan tomayotgan chak-chak yoshga qo'shilib, og'zi-burnining qoni yerga tomardi. Bir qarasam orqamda avtobus ichida hech kim yo'q. Faqatgina men sumkamni bergen ayol bejo ko'zlarini tikib, meni imlayapti. Bordim. Qo'lidagi papkamni olarkanman, menga bir so'z aytdi: "Uka, bu hammamizga saboq bo'ldi", dedi. Keyin o'shib qo'ydi: "Bozordaga keldimmi yoki boshqa joyga keldimmi bilolmay qoldim" dedi. Odamlar ham shunchalik o'zgarib ketganmi? Boyagi shoshilish turgan xola esa norizo bo'lib tushib ketdi. Omon bo'lgin", dedi-da u ham bozorga kirib-chiqayotgan yuzlab odamlarga qo'shilib singib yo'q bo'lib ketdi

Bir zum kalovlanib qoldim. Qani besh daqiqa ilgarigi haydovchinginajajohati? Yoshi ulug' opani sensirab, dilini og'ritmaganmid? Mard bo'lganida o'z hamrohi bolakayni himoyasiga olib, unga yordam bermasmidi Tili bir qarich edi-ku, tili? Nega mushtdekkina bolani borib bir tushirmadi? Yoniga borib hech bo'lmasa "yuzimi" silamadi? Nega? Negadir shu payt ko'nglim aynidi. Bolaga bir

This is not registered version of TotalDocConverter

achishim, Zina hing kiyum. La hali bolaning yoniga hech kim borib, "uka nega uni beayb urding?" deb aytolmadi Nega? Axir odammiz-ku biz? Aka-ukachilik, o'zbekchilik degan rishtalar qaerga uchib sob bo'lgan o'zi? Yoki boyagi opa aytganidek odamlar shunchalik o'zgarib ketganmi? Ming turlanib, o'zgarmasini, baribir odam-ku, odam? Shu tobdagi savollarim qanchalik ko'p bo'lsa ham, shunchalik javobiz edi. Kun sovuq edi Bozordagi o'sha manzara undan besh badtar sovuq edi.

Men esa ikki yo'l aro: na ketarimni, na bir qolarimni bilardim shu tobda. Keyin azim Kentga ketishim esimga tushdi. Bir o'tkinchi taksiga chiqib, yo'limni davom ettirdim. Avtoshohbekatga kelgan edim, yaxshiyamki, hali so'nggi reys joyidan qimir etmay turgan ekan. Qosh qoraya boshladi. Kunning sovug'i endi-endi huvvillab yotgan avtoshohbekatda sezila boshladi. Chaqqonlik bilan avtobusga chiqib oldim. Menga oxirgi o'rindiqda o'tirish nasib etdi. Keyin avtobus sekin g'imirlay boshladi. Endi men orqada o'tiribmanu oldimda bitta yo'lovchi shofyorga qarab "Aka tezroq haydang Toshkent olis shahar vaqtliroq boraylik", dedi. Mening esimga hali bo'lganiga o'n-o'n besh minut vaqt o'tmagan o'sha manzara tushib ketdi.

Unda bola bor ovozi bilan olamga jar solardi:

Vokzal, bozor, yangi bozor, eski bozor tug'ruqxona Vá, va shunday manzara qayta ko'z o'ngimda jonlandi: bolaning og'zi-burni qonga belangan, qo'lidagi bir siqim g'ijimlangan pulga ko'z yoshlari aralash "chak-chak" qon tomardi Buni ko'rghan olomon "ursur lab olamni boshiga kiyardi, kiyardi va yana kiyardi

05.02.2012